



IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



BUXORO
MUHANDISLIK-
TEKNOLOGIYA
INSTITUTI




ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI

2024

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON
Iyun-iyul


INDUSTRY
4.0



Google
Scholar



Digital
Object
Identifier



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Mas'ul muharrir:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

**"ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK
TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH
INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI"**

MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO'PLAMI





BUXORO VILOYATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Akramova Obida Qosimovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Hududlarda ko'plab imkoniyatlarning va shart-sharoitlarning birligida yaratilishi bilan investitsiyalarning hajmi va dinamikasi shakllanadi. Ushbu maqolada Buxoro viloyatiga kiruvchi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning dinamikasi tahlil qilingan. Chiquvchi investitsiyalarning hudud investitsion jozibadorligiga ta'siri va ahamiyati o'rganilgan. Shu bilan birga, Buxoro viloyatidan chiquvchi investitsiyalarni yaratish yo'llari taklif qilingan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, kiruvchi investitsiyalar, chiquvchi investitsiyalar, asosiy kapitalga investitsiyalar, YAMning o'sish sur'ati, investitsion jozibadorlik, mahalliy investorlar, yashil o'sish strategiyasi, tajriba maydoni, organik mahsulot.

Abstract: With the joint creation of many opportunities and conditions in the regions, the volume and dynamics of investments are formed. This article analyzes the dynamics of foreign direct investment in the Bukhara region. The influence and importance of outbound investments on the investment attractiveness of the territory has been studied. At the same time, ways to create outbound investments from the Bukhara region were proposed.

Key words: foreign investments, incoming investments, outgoing investments, investments in fixed assets, GDP growth rates, investment attractiveness, local investors, green growth strategy, experimental space, organic product.

Аннотация: При совместном создании множества возможностей и условий в регионах формируются объемы и динамика инвестиций. В данной статье проанализирована динамика поступления прямых иностранных инвестиций в Бухарскую область. Изучено влияние и значение исходящих инвестиций на инвестиционную привлекательность территории. В то же время были предложены пути создания исходящих инвестиций из Бухарской области.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, входящие инвестиции, исходящие инвестиции, инвестиции в основной капитал, темпы роста ВВП, инвестиционная привлекательность, местные инвесторы, стратегия зеленого роста, экспериментальное пространство, органический продукт.

KIRISH

To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hududning ko'plab sohalariga, mehnat unumdarligiga, bozor tuzilishiga va boshqalarga ta'sir qiladi. To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakat va investitsiya qiluvchi mamlakat o'ttasidagi texnologik tafovutni kamaytiradi. Bu, o'z navbatida, mehnat unumdarligini oshiradi va qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotining o'sishini rag'batlantiradi.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoni dinamikaning yuqori sur'atlari, ularning hajmining oshishi ijobi o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Shuningdek, davlatning investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan bir qator tarkibiy islohotlar va o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Hukumatimiz tomonidan xorijiy investorlar uchun investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan zarur choralar ko'rilgan bo'lib, buning tasdig'i sifatida O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi "Investit-



siyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonuni¹ va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 07.02.2024-yil "Mahalliy va xorijiy investorlarga berilgan preferensiylar va imtiyozlarning yagona reyestrini shakllantirish to'g'risida"gi 77-ton qarori² qabul qilinganligini aytish mumkin.

Mazkur qarorda[1] 2024-yil 1-iyuldan Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi saytida mahalliy va xorijiy investorlarga berilgan preferensiylar va imtiyozlarning turlari, muddatlari, tartibi va mas'ul organlarni o'z ichiga olgan Yagona reyestr yuritilishi aytilgan. Mahalliy va xorijiy investorlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Shunga qaramay, hozirgi kunda hududlarga mahalliy va xorijiy investorlarni jaib qilishga keng imkoniyatlar yaratilayotgan bo'sada, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish masalasida muammolar mavjud. Shularni inobatga olib, bugungi kundagi globallashuv jarayoni mazkur masalada tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion jozibadorlik davlat miqyosida, hududlar miqyosida va korxona miqyosida o'rganiladi. Uni oshirishning samarali yo'llarini tatbiq qilishga ko'p sonli xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan. Investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan tadqiqotlar xorijiy iqtisodchi olimlar V.A. Mashkin, L.S. Valinurova, L.K. Agayeva, V.Yu. Anisimova. S.I. Kovalevalarning ilmiy ishlari o'z aksini topgan. Respublikamiz iqtisodchi olimlari D. G'ozibekov, Sh.I. Mustafakulov, B. Salimov. I. Hotamov, B.K. Tuxliyev va boshqalarning ilmiy ishlari investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlarning natijalari hamda takliflari ishlab chiqilgan. Iqtisodchi olimlardan A.N. Asaul va M.Y. Ivanovlar o'zining ilmiy asarlarida investitsiya muhiti va uni hisoblash usullarini ta'riflashga e'tibor qaratgan[9]. M.Y. Ivanovning ta'kidlashicha: "Investitsiya muhiti – investitsiya jarayonlari kechadigan muhitdir. U mintaqada investitsiya faoliyati sharoitlarini va investitsiya riski darajasini belgilaydigan siyosi, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'sirida shakllanadi".

Chet el va mamlakatimiz olimlarning nazariy izlanish natijalaridan kelib chiqqan holda investitsiya mohiyatini yoritib berish bo'yicha quyidagi xulosaga keldik: investitsiya mohiyatining ilmiy asosi resursli va xarajatli yondashuvlar ularning dastlabki tashkil etilishi mablag'lardan foydalanishni talab etadi, foya olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlardir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzu bo'yicha statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv, statistik usullar qo'llanildi. Tahlil davomida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Shuningdek, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish borasida mavjud muammolar, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar bo'yicha xulosa va takliflar shakllantirildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Matbuot xizmati ma'lumotiga ko'ra, davlatimiz rahbari tomonidan 2023-yil yakuni bilan jami 22 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgani, bu avvalgi yilga nisbatan 1,8 barobar ko'pligi ta'kidlandi. Buxoro viloyatida esa 2023-yil yakuni bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 31 301,2 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan 133,4 % ni tashkil etdi.

Buxoro viloyatida korxona va aholining o'z mablag'lari hamda chet el investitsiyalari va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni tahlil qilish orqali shu aniqlandiki, chet el investitsiyalari va kreditlar yildan yilga oshib bormoqda, lekin korxona va aholining o'z mablag'lari hisobidan kiritiladigan investitsiyalar 2019-yilga nisbatan kamaygan. Korxona va aholining o'z mablag'lari hisobidan kiritiladigan investitsiyalar 2019-yilda 28.9%ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 25.9%ni tashkil qilmoqda. Buni 2019-2023-yillar davomida o'zgarishini tahlil qilamiz. (1-rasm).

1 lex.uz/docs/-4664142

2 lex.uz/docs/-4664142



1-rasm. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibi 2019-2023-yillar³.

Yuqorida rasmdan shuni aytish mumkinki, Buxoro viloyatida chet el investitsiyalari va kreditlar hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar ko'p bo'sada, YAMning o'sish sur'ati 2019-yilda 106.3% bo'lgan, 2023-yilda esa 105.2% ni tashkil qilgan, 2019-yilga nisbatan o'sish sur'ati kamaygan. Bu shundan dalolat beradiki, faqat xorijiy investorlarni jalb qilish emas, balki mahalliy investorlarni jalb qilishni yo'lga qo'yish lozim.

Shu bilan birga, Buxoro viloyati investitsiyalarni qabul qiluvchi hudud sifatida shakllanib bormoqda. Xolbuki, xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, faqat investitsiyalarni qabul qiluvchi sifatida faoliyat yuritmasdan xorijiy davatlarga investitsiya kiritish imkoniyatlari haqida o'ylash kerak.

Tadqiqotimiz jarayonida Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish uchun Rossiya davlatining imkoniyatlaridan foydalanib, o'zaro hamkorlik shartnomasi asosida Rossiya davlatiga investitsiya kiritish talab etiladi. Buning uchun Rossiyadagi bo'sh yer maydonlaridan foydalanib, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishni yo'lga qo'yish mumkin. Hudud investitsion jozibadorligini oshirishda faqat xorijiy investorlarni jalb qilish bilan emas, balki boshqa davatlarga investitsiya kiritish bilan ham erishish mumkin.

Rossiya Prezidenti Vladimir Putining 26–27-may kunlari O'zbekistonga davlat tashrifi yakunlari bo'yicha 27 ta hujjat imzolanganini Kreml matbuot xizmati xabar qildi.

Shavkat Mirziyoyev va Vladimir Putining qo'shma bayonoti, hukumatlar o'ttasida O'zbekistonga metrologiya sohasida texnik ko'mak ko'rsatish to'g'risidagi bitim, mamlakatlarning tovar ayirboshlash hajmini oshirish uchun sanoat kooperatsiyasini kengaytirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasi, hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha o'zaro hamkorlikni kengaytirishga doir qo'shma harakatlar rejasi, 2024–2030-yillarga mo'ljallangan mamlakatlar o'ttasidagi tovar ayirboshlashni oshirish bo'yicha ishchi guruh faoliyatining asosiy yo'nalishlari rejasi shular jumlasidandir⁴. Bu bitimlar doirasida Rossiyaning imkoniyatlaridan keng foydalanish, ikki tomonlama manfaatli shartnomalar tuzish uchun chora-tadbirlar strategiyasi ishlab chiqish mumkin.

Tashqi mehnat migrantsiyasini strategik rejalashtirish va jamoaviy tahvil qilish boshqarmasi boshlig'i Azim Axmatov xorijda ishlayotgan o'zbekistonliklar soni 2–3 million kishini tashkil etishini ta'kidlagan. Respublika fuqarolarining asosiy qismi Rossiya, Turkiya va Qozog'istonda ishlaydi. Ushbu mamlakatlarda o'zbekistonliklar uchun vizasiz rejim mavjud⁵. Shundan Buxoro viloyatidan 98714 nafar fuqarolar xorijga ishlash uchun boradi va bir qancha muammolarga duch keladi. Rossiyaga investitsiya kiritish orqali birgina Buxoro viloyatini emas, balki Respublika miqyosida xorijga ish izlab borgan fuqarolarimiz ish bilan ta'minlanadi hamda davlat kafolatiga ega bo'ladi.

3 bux.stat.uz ma'lumotlari asosida mualif tomonidan ishlab chiqilgan.

4 <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/27/uzb-rus-documents/>

5 <https://uz.kursiv.media/2024-04-16/skolko-uzbekistanczew-rabotayut-za-rubezhom>.



Greenpeace Rossiya mintaqalarini tashlandiq qishloq xo'jaligi yerlari maydoni bo'yicha taqqosladi. "Vedomosti" nashrining yozishicha, mamlakat bo'ylab jami 80 million hektar qishloq xo'jaligi yerlari tashlab ketilgan. Ularning aksariyati Boshqirdistonda – 4,2 million hektar yoki butun mintaqaning uchdan bir qismini tashkil etadi. Undan keyin Tver viloyati, shuningdek, Novosibirsk, Smolensk, Kirov, Nijniy Novgorod viloyatlari, Tatariston, Oltoy va Perm o'lkalari va Kurgan viloyatlarida bunday yerlar mavjud⁶.

Rossiyada qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyati yetarli darajada, faqat aholining ko'p qismi shaharda yashashni xohlashi natijasida qishloq xo'jaligini rivojlantirish imkoniyatini cheklamoqda. Bu imkoniyatdan hududlarimizni rivojlantirish va aholining bandligini ta'minlash uchun foydalanishimiz mumkin.

Masalan, Buxoro viloyatida kartoshkadan yilda 2 marta ekib, hosil olish mumkin. Viloyat sharoitida kartoshka uchun tuproq turlarini hisobga olgan holda ma'lum bir ketma-ketlikda tegishli ishlov berish orqali yaratilishi mumkin. Kartoshka o'sishi va rivojlanishi uchun juda ko'p ozuqa moddalarini talab qiladi. 10 tonna ildiz hosil bo'lganda kartoshka tuproqdan taxminan 50 kg azot, 20 kg fosfor, 90 kg kaliy, 40 kg ga yaqin kalsiy, 20 kg magniyni olib tashlaydi^[2].

Rossiyada esa tuproqning unumдорлиги yuqori darajada bo'lganligi sababli kartoshka faqat ekiladi va yig'ib olinadi. Buxoro viloyatida kartoshka yetishtirishda mehnat xarajatlari ko'p va suv tanqisligi borligi sababli suvslash jarayonida ham xarajat talab qilinadi, Rossiyada esa bu xarajatlarning hech biri talab qilinmaydi.

Endi bug'doy yetishtirish jarayoni esa Buxoro viloyatida kuzgi mavsumda ekiladi, keyin bahordan boshlab 4 marta suvlanadi, hasharotlarga qarshi dorilanadi va yig'ib olinadi. Rossiyada esa bu jarayon faqat bahor mavsumida ekiladi, quritib yig'ib olinadi. Buxoro viloyatida bug'doyning hosildorligi 50–60 sentnerni tashkil qilsada, xarajatlarning ko'pligi va ekin yerlarini ko'paytirish imkoniyati yo'qligi bu hosilni yanada ko'paytirish imkonini bermaydi. Rossiya yerlarining unumдорлиги yuqori bo'lganligi va ekin yerlari ko'pligi sababli hosildorlik 25–30 sentner bo'lsada, bundan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, Rossiyada chorvachilik mahsulotlarini ham ishlab chiqarish imkoniyati yuqori hisoblanadi.

Rossiyaga investitsiya kiritish orqali aholi soni o'sib borayotgan davrda qishloq xo'jalik mahsulotlariga talab ortishi natijasida yuzaga keladigan muammolarni oldini olishga erishiladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib, tadqiqotlarimizda Buxoro viloyati va Boshqirdiston Respublikasining imkoniyatlarini birlashtirish strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyaga asosan kelajakda ikki hudud uchun manfaatli loyihalar ishlab chiqilishiga sabab bo'ladi.

Bashstat 2024-yil boshida boshqaruva va okruglar bo'yicha aholi soni haqida ma'lumot berdi. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, 1-yanvarda respublika aholisining umumiyligi soni 4 million 64 ming 361 kishini tashkil etdi. Ulardan deyarli 2,6 mln (2 585 360 kishi) aholi 21 ta shahar va ikkita shaharchada (Priyutovo, chishma) yashaydi.

Elina Axmetovaning ta'kidlashicha, qishloq aholisining soni 1,479 ming kishini tashkil etadi. Bu umumiyligi aholining taxminan 40% hisoblanadi. Bundan tashqari, siz hududlar o'ttasida katta farqni sezishingiz mumkin. Hozirgi kunda eng kichiklari Yermekeyevskiy va Zilairskiy – har birida 14 mingdan kam odam bor. Sterlibashevskiyda - 16,3 ming, Burzyansk tumanida (90-yillarda 16 ming aholi bilan 1-o'rinni egallagan) endi 17 ming kishi yashaydi⁷.

Buxoro viloyati aholisining 1269,3 ming nafari qishloqda yashaydi, bu umumiyligi aholining 63,1 foizini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan mahsulotlarining ko'p qismi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiyligi hajmining 63,8 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 30,1 foizi fermer xo'jaliklariga, 6,1 foizi qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda. Buxoro viloyatida aholisining qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha erishilayotgan natijalari – bu avloddan avlodga o'tib kelayotgan malakasi sabab bo'lmoqda. Boshqirdistonga investitsiya kiritar ekanmiz, aholining malakasidan va mutaxassislarimiz tomonidan ilmiy asoslangan loyihalardan unumli foydalanishimiz lozim. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Buxoro viloyati dehqon va fermer xo'jaliklari yerning sho'rligi va suv tanqisligida ham aholiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga harakat qilib, natijalarga erishib kelmoqda. Lekin bu bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni to'la qondirish imkoniyatiga ega emasmiz. Shuning uchun agrar soha mutaxassislarini Boshqirdistondagi 4,2 million hektar bo'sh qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish bo'yicha mukammal takliflarini ishlab chiqishlari lozim. Buxoro viloyatidagi qishloq xo'jaligida mehnat qiluvchi kadrlari ham qishloq xo'jaligini boshqarish va uni rivojlantirish imkoniyatiga ega. Oliy ma'lumotli agrar soha mutaxassislarini bu loyihalarga jaib qilsak, yana ham yuqori natijalarga erishsak bo'ladi. Buxoro viloyati va Boshqirdiston Respublikasining salohiyatini solishtirish orqali ularning imkoniyatlarini aniqlaymiz(1-jadval).

6 <https://tverograd.ru/publication/tverskaya-obl-v-liderakh-po-ploshhadi-zabroshennykh-selkhozugodijj-v-rossii/>

7 <https://www.bashinform.ru/news/social/2024-05-10/statistiki-podschitali-naselecie-gorodov-i-syol-v-bashkirii-3760989>



1-jadval. Buxoro viloyati va Boshqirdiston Respublikasi imkoniyatlarining solishtirma jadvali⁸.


RESURSLAR	BUXORO VILOYATI	BOSHQIRDISTON RESPUBLIKASI
Umumiy imkoniyatlar		
Suv resurslari	cheklangan	Cheksiz
Yer resurslari	Unumdorligi past	Unumdorligi yuqori darajada
Energiya resurslari	cheklangan	Cheksiz
Mehnat resurslari	Talab darajasida	Yetishmaydi.
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha		
Kartoshka	Suv tanqisligi mavjud, Yerning unumdorligi pastligi sababli o'git uchun xarajat qilinadi. Ishlov berish uchun mehnat xarajatlari mavjud	Yerning unumdorligi yuqori darajada bo'lganligi sababli qo'shimcha xarajatlar talab qilinmaydi.
Bug'doy	Ekin yerlari cheklangan, Suv tanqisligi mavjud Juda issiqda hosildorlik past bo'ladi, kasallik va hasharotlar zararkunandalardan ko'proq aziyat chekadi va shuning uchun dorilanadi. Kuzda ekiladi va shuning uchun hosildorlik yuqori darajada. 55-60s	Foylanilmayotgan ekin yerlari juda ko'p Suv resurslari cheksiz Kuzda ekish har doim samara bermaydi, Bahordagi ekinning hosildorligi 25-30s Ekin yerlari ko'pligidan foydalanish mumkin.
Go'sht va go'sht mahsulotlari	Chorvachilik uchun ozuqa yetishtirish xarajatlari yuqori.	Mavjud yavlovlar evaziga chorvachilik uchun qulay. Bug'boy ekinlari bir qismi chorvachilik uchun ajratiladi.

Imkoniyatlarini solishtirish natijasida ko'rish mumkinki, Buxoro viloyati va Boshqirdiston Respublikasi imkoniyatlaridan foydalanib, birgalikda "yashil o'sish"ni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirib, tajriba maydonini rivojlantirish mumkin.

Yashil iqtisodiyotga o'tish doirasida Koreya Respublikasi tajriba maydonini shakllantirmoqda va bunga investorlarni ham jalg qilib kelmoqda. Koreya Respublikasi hukumati 2008-yilda Chedju orolida intellektual tarmoqlar uchun tajriba maydonini qurish uchun 76,6 mldr. Von (66 mln. doll.) ajratdi. Xususiy investorlar tomonidan ajratilgan mablag'lar bilan birgalikda ushbu loyiha uchun jami 172,7 mldr. von (149 mln. doll.) sarflandi. Ushbu strategiyani amalga oshirishda 168 ta koreya va xorijiy kompaniyalar ishtirot etdi. KEPCO kompaniyasi ushbu sohani rivojlantirish uchun 2030-yilga qadar 7 mldr. dollar investitsiya sarflashini e'lon qildi[3].

Koreya Respublikasi tomonidan amalga oshirilayotgan loyiha biz taklif qilayotgan strategiyaning ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Buxoro viloyati va Boshqirdiston Respublikasi bilan birgalikdagi tajriba maydoniga sarflanadigan mablag'lar ham "yashil o'sish"ni rivojlantirish strategiyasi bo'lib xizmat qiladi. Quyidagi rasmda Buxoro viloyati va Boshqirdiston Respublikasi hamkorligi doirasida yashil o'sish tajriba maydonini rivojlantirish strategiyasi taklif qilinadi. (2-rasm)

8 Muallif ishlansasi



2-rasm. Buxoro viloyati va Boshqirdiston Respublikasi hamkorligi doirasida yashil o'sish tajriba maydonini rivojlantirish strategiyasi⁹

9 Muallif ishlansasi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, oziq-ovqat mahsulotlariga talab har doim oshib borishini nazarda tutib, ikki tomonlama manfaatli kelishuvlar amalga oshirilsa, kelajakda o'z samarasini beradi. Bu kelishuvlar asosida kiritilgan investitsiyalar ikki tomon uchun ham manfaat olib keladi. Natijada kelajakda jahon bozoriga organik mahsulotlar bozorini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Yuqorida keltirilgan tahlillarimizdan kelib chiqib, investitsiya muhitini yaxshilash uchun xususiy va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha institutsional asosni shakllantirish lozim deb hisoblaymiz. Xorijiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirdorlik faoliyatini erkinlashtirish imkonini oshirish lozim. Biznesning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha astoydil kurashish kerak. Natijada investitsion jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali esa investitsions faoliyatni rag'batlantirish, shaffoflikni maksimal darajada ta'minlash va xorijiy investorlarning murojaatlari va so'rovlari bilan ishlashni tashkil etish lozim deb hisoblaymiz.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. Hakimova Nodira Xayrilloyevna and Sodiqov Davron Bahron o'g'li 2024. Buxoro viloyati tuproq-iqlim sharoitida kartoshka ekinini hosildorligining samaradorligi. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. 38, 1 (Feb. 2024), 26–29.
2. Jaehong Whang, Woohyun Hwang, Yeuntae Yoo and Gilsoo Jang. Introduction of Smart Grid Station Configuration and Application in Guri Branch Office of KEPCO. <https://www.mdpi.com/journal/sustainability>
3. Akramova O.K. Ensuring investment security as an autonomous factor in increasing investment attractiveness. Informatics. Economics. Management. 2022; 1(2): 0208-0216. <https://doi.org>
4. Ochilov Sh.B., Boboev A.Ch., Akramova O.K. Ways to increase the investment attractiveness of regions by reducing investment risks in agriculture. Informatics. Economics. Management. 2024; 3(1): 0401-0410. <https://doi.org>
5. Akromova O.K. Improvement of assessment system of investment attractiveness of regions //Информатика. Экономика. Управление-Informatics. Economics. Management. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 0115-0125.
6. Akromova O.K. Model for assessing the investment attractiveness of regions //Современные инновации, системы и технологии-Modern Innovations, Systems and Technologies. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 0257-0264.



MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi	4
Sadoqat Siddiqova	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов	9
Юлдашев Норбек Худайназарович	
Ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoev	
Ekspluatatsiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi	19
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalarni tadqiq qilish	24
Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
Ядгаров Ўкташ Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шухрат Кудратович	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices	37
Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development	44
Jafarova Khilola Khalimovna	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлокного переплетения	48
Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины	53
Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли	
Mustaqil ta'limiň tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
Murodova Zarina Rashidovna	
Kislородли birikmalar asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish	66
Saloydinov Aziz Avazovich	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
Akramova Obida Qosimovna	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
Н.С.Бибутов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
Ф.Ю. Хабибов, Х.Х. Ниязов	
Tуризм: типология и классификация.....	95
Малоҳат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi	
Umumiyligi ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
Ruziyeva Gulinoz Fatilloyevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari	114
Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinovna, Niyozova Rano Najmiddinovna, Axmedov Hafiz Ibroimovich	
Kichik quvvatlari, energiya samarador shamlar turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети Мухамадиева Зарина Баходировна	127
Dizel moylarini reologik xossalarini tatqiq qilish Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li	132

MUNDARIJA SODEPZHAHNIYE CONTENTS

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.